# BIZNES LOYIHALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH AMALIYOTINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

**Ibodullaev Muxammadali Asqarali o‘g‘li**
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 12.09.2025
Revised: 13.09.2025
Accepted: 15.09.2025

**Kalit so`zlar:**
biznes loyihasi, samaradorlikni baholash, iqtisodiy tahlil, investitsiya qarorlari, baholash mezonlari, moliyaviy ko‘rsatkichlar, loyihani boshqarish, risklarni tahlil qilish.

**Annotatsiya**
Ushbu maqolada biznes loyihalarining samaradorligini baholash amaliyotini samarali tashkil etishning ahamiyati yoritilgan. Muallif loyihalarni baholashda qo‘llaniladigan asosiy usullar, mezonlar va ko‘rsatkichlarni tahlil qiladi hamda ularning biznes qarorlar qabul qilishdagi o‘rni va ta’sirini ochib beradi. Shuningdek, amaliyotda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ham keltirilgan. Maqola biznes-rejalar tuzish, investitsiya loyihalarini tahlil qilish va korxona faoliyatini rejalashtirish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun foydalidir..

Biznes loyihalari samaradorligini baholash amaliyotini samarali tashkil etish mamlakat iqtisodiyotida yirik biznes subektlarining yuzaga kelishiga, amalga oshirilayotgan loyihalar samaradorligini oshirishga, loyihalarni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etishga xizmat qiladi. Biznes loyihalari samaradorligini baholash amaliyotini samarali tashkil etishda bir qator yo‘nalishlar orqali kutilgan natijalarga erishish mumkin. Xususan, mamlakatimizdagi biznes loyihalarida “due diligence” amaliyotidan foydalanish loyihalar bo‘yicha samardorligini oshiradi.

Biznes loyihalarida “due diligence” amaliyotidan foydalanish o‘zining bir qator ijobiy jihatlarga ega ekanligi bois rivojlangan mamlakatlar amaliyotida loyihalar samaradorligini baholashda keng qo‘llanilmoqda. “Due diligence” amaliyoti nomzod loyihalar bilan bog‘liq barcha omillarni tahlil qilish, ularni amaliyotga tatbiq etish uchun tegishli usullar va imkoniyatlarni aniqlash jarayonlarini qamrab oladi. Qaror qabul qiluvchilar o‘zlarining investitsiyalari xavfsizligini taminlash uchun loyihaning prognoz qilinishini yaxshi tushunishlari lozim. Shuningdek, loyihani sinchkovlik bilan tekshirish loyiha bo‘yicha bo‘shliqlarni aniqlash imkonini beradi. Loyihani tekshirish loyiha muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi barcha muhim omillarni hisobga olgan holda kompleks prognozni namoyon qiladi. Mazkur jarayon loyihaga ta’sir qiluvchi iqtisodiy, siyosiy yoki ekologik omillarni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu

sababli milliy amaliyotda biznes loyihalari samaradorligini baholashni samarali tashkil etish va mazkur jarayonda “due diligence” amaliyotidan foydalanish masalalarini o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

Biznes loyihalari samaradorligini baholash amaliyoti aksariyat mamlakatlarda o‘rganiladigan sohalardan bo‘lib, loyihalar samaradorligi investorlar va loyiha egalarining foyda ko‘rishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan ko‘plab tadqiqotchilar mazkur amaliyot bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. V.Bouras fikricha, “loyihaning muvaffaqiyatli yakunlanishi xarajat, vaqt va samaradorlik (sifat)ga bog‘liq, deya hisoblangan. Keyinchalik, tadqiqotchilar tomonidan loyihaning muvaffaqiyatini o‘lchash uchun ko‘proq mezonlar qo‘shilgan hamda bugungi kunda ko‘plab jihatlarga e’tibor qaratilmoqda” (Vassilis, Bouras, 2013). Hozirda loyihaning samaradorligini baholashda ko‘plab ko‘rsatkichlarning inobatga olinishi loyiha riskini pasaytirishga yoki aniq hisob-kitoblarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yeskombe (2002) “kreditorlar tomonidan riskni baholash ma’lum bir riskning loyihaning hayotiyligiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan moliyaviy ta’siri bilan bir qatorda uning haqiqatda sodir bo‘lish ehtimoliga ham asoslanishi”ga e’tibor qaratgan.

Vang va boshqalar (2022) “loyihani baholash jarayoni bosqichma-bosqich yagona iqtisodiy baholashdan ko‘p o‘lchovli kompleks baholashgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi. Loyihaning tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda uning ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirini baholashga e’tibor qaratiladi. Shuning uchun tadqiqotchilar baholash ko‘rsatkichlarini tanlashda ba’zi ijtimoiy omillarni ham hisobga oladi”, deya ta’kidlagan. Loyiha samaradorligini baholashda loyihaning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini aniqlash orqali mazkur loyihaning jozibadorligini belgilash mumkin.

Zada va boshqalar (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra “loyihani boshqarish samaradorligi (PME) loyihani boshlashdan tortib to amalga oshirishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga olishi lozim. Loyihani boshqarish samaradorligi, shuningdek, loyihaning ko‘lamini aniqlash, xarid qilish tartib-qoidalarini ishlab chiqish, rivojlanishini kuzatib borish va belgilangan muddatda to‘lovlarni amalgaoshirishni o‘z ichiga oladi”. Biznes loyihalarini moliyalashtirishda loyihani boshqarish samaradorligini aniq belgilash lozim.

Biznes loyihalari samaradorligini baholashda mavjud risklarni sifat va miqdoriy tahlil qilish lozim. “Risklarni sifat tahlili bu loyiha bo‘yicha kutilishi mumkin bo‘lgan asosiy risklarni aniqlash, loyihani amalga oshirishda uning oqibatlarini o‘rganish va risklarni pasaytirish yo‘llarini (tadbirlarini) aniqlashdan iborat. Risklarning miqdoriy tahlili bu risklilik

nuqtai nazaridan loyiha bo‘yicha bir qator omillarning o‘zgarishi natijasida loyiha samaradorligi mezonlarining o‘zgarishini o‘rganishdan iborat” (Xujamkulov, Ismailov, 2019).

Abdurahimova (2023) tijorat banklarida loyihalar samaradorligini oshirishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlariga to‘xtalib o‘tgan. “Jarayonlarni avtomatlashtirish, tavakkalchiliklarni boshqarishni takomillashtirish va mijozlar uchun shaxsiylashtirilgan xizmatlarning barchasi bankning rentabelligi va umumiy raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi”. Tijorat banklarida loyihalar samaradorligini oshirishda moliyaviy texnologiyalar ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Abdikarimova (2018) qayd etishicha, “mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishga erishish, iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirish, shuningdek, biznes yuritishning turli shakllarini yo‘lga qo‘yish uchun keng imkoniyatlar yaratishda bank kreditlari muhim ahamiyat kasb etmoqda”. Biznes loyihalari samaradorligi mazkur biznesni moliyalashtirish shakli bilan ham bevosita bog‘liqligini ko‘rish mumkin.

Milliy amaliyotda biznes loyihalarida “riskni to‘g‘ri baholash va kamaytirish maqsadida onlayn moliyaviy konsalting, investitsion kraudfanding, moliyaviy risklarni baholovchi texnologiyalar” (Omonov, 2023) kabi zamonaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanish mazkur amalga oshirilayotgan biznes loyihasining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Davlyatshayev (2023) ta’kidlashicha, “bozor sharoitida amalga oshirilayotgan biznes loyihalari uchun loyihaning istiqbolli rentabelligi, ya’ni uning yakuniy ilmiy, texnik, ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy samaradorligi eng muhim masalasi hisoblanadi. Shuning uchun korxonalar rahbarlari investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda tanlov vositalari va uslubiy yondashuvlarga ega bo‘lishlari kerak. Loyiha iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lsa, amalga oshirilishi mumkin va aksincha, samarasiz bo‘lsa, uni rad etish kerak”.

“Korxona moliyaviy holatining yomonlashishiga yana bir sabab: chet el valyutasida olingan bank krediti bo‘lib, u bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi korxonaning moliyaviy faoliyatdan olayotgan zararini yanada kuchaytirmoqda” (Mamatov, 2022). Xorijiy banklardan biznesni moliyalashtirish maqsadida kredit olishda, albatta, valyuta riskini hisobga olish va kutiladigan yo‘qotishlarga tayyor turish lozim. Shuningdek, xorijiy investorlar ishtirokidagi biznes loyihalarida valyuta riski ham inobatga olinishi lozim.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqqan holda ta’kidlash lozimki, biznes loyihalari samaradorligini baholashni

samarali tashkil etishda risklarni baholash, pul oqimlarini prognoz qilish, moliyaviy va iqtisodiy samaradorlikni aniqlash kabilarga e’tibor qaratish lozim. Qolaversa, loyihalarni amaliyotga joriy qilishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni qo‘llash va “due diligence” amaliyotidan foydalanish masalalarini kengroq tadqiq qilish lozim.

Loyihalar samaradorligini baholashda “due diligence” amaliyotini samarali tashkil etishga e’tibor qaratish lozim. Loyihani rivojlantirish va loyihada “due diligence” amaliyotining biznes loyihalariga tatbiq etilishi taklif etilayotgan infratuzilma loyihalari uchun uning rivojlanishga yaroqliligini tasdiqlash uchun loyihani batafsil o‘rganish, tegishli darajadagi tekshiruvlarni o‘tkazish va aniq dizayn parametrlarini aniqlash loyiha ko‘lamini rivojlantirish uchun zarur. Mazkur jihat yaxshi rejalashtirilgan va ishlab chiqilgan loyiha taqdim etilishini hamda loyiha uchun xarid jarayonlari aniq va mos ma’lumotlarga asoslanishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

Абдиев, А. Ш. (2020). Инвестицион лойиҳаларни баҳолаш ва самарадорлигини ошириш усуллари. Тошкент: “Иқтисодиёт” нашриёти.

Назаров, Б. Ҳ. (2019). Бизнес режа ва инвестицион лойиҳаларни тузиш методикаси. Тошкент: Молия институти нашриёти.

Damodaran, A. (2012). Investment valuation: Tools and techniques for determining the value of any asset (3rd ed.). Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.

Gittinger, J. P. (1982). Economic analysis of agricultural projects (2nd ed.). Baltimore: The Johns Hopkins University Press.

Savchuk, V. P., & Kovalev, V. V. (2018). Оценка эффективности инвестиционных проектов. Москва: Инфра-М.

Mamatqulov, D. M. (2021). Biznes loyihalarni iqtisodiy baholashda zamonaviy yondashuvlar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 5(3), 112–117.

World Bank. (2017). Evaluating the performance of investment projects. Washington, D.C.: World Bank Publications.